



NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2020- yil 1- avgust holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



Viloyatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda)

8 997



Mas'uliyati cheklangan
jamiyat

3 634



Oilaviy korxonona

70



Unitar korxonona

5 298



Xususiy korxonona

22



Aksiyadorlik jamiyati

155




Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



xususiy korxonona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonolari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar- iyul oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyul oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-iyul oylarida 2 984 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 585 ta, xususiy korxonalar – 632 ta, oilaviy korxonalar – 673 ta, muassasalar 31 ta va boshqalar – 63 tani tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **136,6** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




37,5
foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




48,4
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




17,3
martaga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan
11,5 foizga oshdi




Xususiylar




24,3
foizga




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari




Mikrofimlar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **29,1** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **90,0** foizni tashkil etdi



Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **11,2** foizga oshdi




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korrxa va tashkilotlar soni


(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korrxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korrxonalar




Xususiy korrxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,4** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




18,3 foizga oshdi



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




31,4 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




1,3 martaga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **2,0** martaga oshdi



Xususiy korxonalar



7,7 foizga oshdi



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

265



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

6



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

13



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



97

yashash bo'yicha xizmatlar




1 178

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 275 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,7 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 111,3 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,4 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 154,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,6 %) o'sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 180 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,1 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 100,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,9 %);

axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 134,8 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 17,2 %);


noshirlik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 114,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,3 %);

dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 100,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,1 %);

kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 117,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 30,0 %);

aloqa xizmatlarning – 83,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 34,5 %) o'sishidir.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020 - yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra 237 tani tashkil etib, ulardan 231 tasi yoki 97,5 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 57 taga yoki 31,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 26 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyul oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2016- yil | 2017- yil | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|--|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| Jami | 63 | 58 | 79 | 175 | 231 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 6 | 6 | 11 | 26 | 29 |
| Sanoat | 45 | 39 | 50 | 102 | 144 |
| Qurilish | 1 | 1 | 1 | 10 | 9 |
| Savdo | 4 | 4 | 5 | 17 | 25 |
| Tashish va saqlash | 3 | 3 | 3 | 2 | 3 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | - | - | 1 | 4 | 3 |
| Axborot va aloqa | - | - | - | - | 1 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | - | - | - | 1 | 2 |
| Boshqa turlar | 4 | 5 | 8 | 13 | 15 |

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2016- yil | 2017- yil | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|--|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| Jami | 2 990 | 3 426 | 4 280 | 6 368 | 8 671 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 378 | 521 | 666 | 857 | 1 272 |
| Sanoat | 597 | 702 | 865 | 1 213 | 1 523 |
| Qurilish | 415 | 460 | 567 | 784 | 1 067 |
| Savdo | 739 | 821 | 987 | 1 791 | 2 767 |
| Tashish va saqlash | 235 | 284 | 350 | 458 | 509 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 121 | 151 | 216 | 334 | 391 |
| Axborot va aloqa | 52 | 43 | 54 | 70 | 77 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 30 | 44 | 56 | 70 | 92 |
| Boshqa turlar | 423 | 400 | 519 | 791 | 973 |

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

| | 2017- yil | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|--|------------|------------|--------------|--------------|
| Jami | 452 | 622 | 2 058 | 3 504 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 106 | 154 | 346 | 406 |
| Sanoat | 97 | 128 | 535 | 797 |
| Qurilish | 9 | 7 | 24 | 54 |
| Savdo | 84 | 117 | 640 | 1503 |
| Tashish va saqlash | 7 | 7 | 21 | 31 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 98 | 144 | 305 | 393 |
| Axborot va aloqa | 2 | 8 | 18 | 21 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 8 | 13 | 24 | 32 |
| Boshqa turlar | 41 | 44 | 145 | 267 |


Shahar va tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)

| | Jami | shundan: | |
|-----------------|------|-------------------|-------------------|
| | | qo'shma korxonona | xorijiy korxonona |
| Navoiy viloyati | 231 | 144 | 87 |
| Navoiy sh. | 73 | 53 | 20 |
| Zarafshon sh. | 16 | 10 | 6 |
| tumanlar: | | | |
| Konimex | 8 | 5 | 3 |
| Qiziltepa | 15 | 10 | 5 |
| Navbahor | 10 | 8 | 2 |
| Karmana | 58 | 35 | 23 |
| Nurota | 24 | 13 | 11 |
| Tomdi | 8 | 7 | 1 |
| Uchquduq | 9 | 1 | 8 |
| Xatirchi | 10 | 2 | 8 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahrida 73 tani (umumiy miqdoridagi ulushi 31,6 %), Zarafshon shahrida 16 tani (6,9 %), Karmana 58 tani (25,1 %), Nurota 24 tani (10,4 %), Qiziltepa 15 tani (6,5 %), Xatirchi 10 tani (4,3 %), Uchquduq tumanlarida 9 tani (3,9 %) tashkil etadi.


Shahar va tumanlar kesimida har 1 000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni¹⁾

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



Shahar va tumanlar kesimida har 1 000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni²⁾

(2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda)



¹⁾ 2020- yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.

²⁾ Doimiy aholi soni 2020- yil 1-iyul holatiga ko'ra shakllantirilgan.

Shahar va tumanlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

| | Oilalar soni ^{*)} | Tadbirkorlik subyektlari soni | |
|------------------------|----------------------------|-------------------------------|-----------------|
| | | 01.08.2019- yil | 01.08.2020- yil |
| Navoiy viloyati | 268 809 | 12 528 | 17 328 |
| Navoiy sh. | 46 626 | 3 517 | 3 850 |
| Zarafshon sh. | 22 517 | 973 | 1 381 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Konimex | 10 090 | 344 | 626 |
| Qiziltepa | 39 771 | 1 462 | 2 316 |
| Navbahor | 28 546 | 1 109 | 1 731 |
| Karmana | 37 836 | 2 147 | 2 820 |
| Nurota | 22 696 | 938 | 1 307 |
| Tomdi | 2 573 | 193 | 303 |
| Uchquduq | 11 354 | 527 | 828 |
| Xatirchi | 46 800 | 1 318 | 2 166 |

**)2020- yil 1-yanvar holatiga ko'ra tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.*

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan (UZSTAT). The page features a blue header with the national emblem and the text "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the header is a navigation menu with options like "ASOSIY SAHIFA", "QO'MITA HAQIDA", "AXBOROT XIZMATI", "INTERAKTIV XIZMATLAR", "OCHIQ MA'LUMOTLAR", "MUHOJATLAR", and "KONTAKTLAR". A search bar is located on the right side of the header. The main content area is divided into three columns: "RASMIY STATISTIKA" (Official Statistics) on the left, a central form for entering the STIR code, and "FOYDALI MA'LUMOTLAR" (Useful Information) on the right. The central form includes a dropdown menu for "Xizmatlar ro'yxati" (List of services) with options like "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Uslubiy materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxonalar pasporti". The form also has a field for "STIR kodini kiriting" (Enter STIR code) with a sample code "99831k" and a "Qidiruv" (Search) button.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Navoiy viloyati statistika boshqarmasining www.navstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.: 79 222-04-56**